ILMIY AXBOROT

UDK 1:008 (575.1). **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a194**

BIOETIKA: FAN-TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH JARAYONIDAGI AHAMIYATI
(ijtimoiy-falsafiy tahlil)

БИОЭТИКА: ЗНАЧЕНИЕ В НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ И ПРОИЗВОДСТВЕННОМ ПРОЦЕССЕ
(социально-философский анализ)

BIOETHICS: SIGNIFICANCE IN THE SCIENCE-TECHNOLOGY AND PRODUCTION PROCESS
(social-philosophical analysis)

Shermanov Isobek Chilmamatovich[1]

[1]Shermanov Isobek Chilmamatovich – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada bioetika jamiyatning moddiy va ma'naviy paradigmasi sifatida tahlil qilingan bo'lib, xozirgi zamon jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida zamonaviy bioetika va biotexnologiya ko'p tarmoqli ilmiy-amaliy yo'nalish ekanligi tahlil qilingan. Shu bilan birga "Jamiyat-ijtimoiy, gurrux-inson" tizimida bioetika qadriyatlarining ishlab chiqarish jarayonidagi axamiyati ochib berilgan. Bioetika va biotexnologiyaning fan-texnologiya va ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyati biologiyada xususan, (mikrobiologiya, genetika, molekulyar biologiya, biokimyo va h.k.) va muhandislik fanlari yutuqlari asosida paydo bo'lgan. Bioetika va biotexnologiyaning rivojlanishi, o'z navbatida unga tegishli bo'lgan bir necha fanlar bo'yicha olib boriladigan ilmiy-amaliy izlanishlarni jadallanishiga olib keldi. Ayniqsa mikroorganizmlar asosida xilma-xil fiziologik faol moddalarni sintez qilish, buning uchun kerakli va ijtimoiy-iqtisodiy samara beradigan, raqobatbardosh mikrob produsentlarni yaratish, ulardan kerakli mahsulotni ajratib olishni yo'lga qo'yish, shu maqsadda o'simlik va hayvon hujayra va to'qimalaridan foydalanish masalalari bo'yicha erishilgan yutuqlar yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. Biotexnologiya ko'p tarmoqli bo'lganligi uchun ham, uni barcha yo'nalishlarini bir maqolada yoki ma'lum bir ilmiy tadqiqot ishida ochib berish ancha muammoli vazifa. Bioetik va biotexnologik jarayonlar taraqqiyotida bu yo'nalishning tarixi, kechagi, bugungi holati va ertasi haqida fikrlar berilgan. Maqolada zamonaviy bioetik va biotexnologik jarayonlarnig ilmiy, amaliy va uslubiy asoslarini yoritishga harakat qilingan, xususan, global axborotlashgan makonda biotexnologik jarayonlar taraqqiyotining ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirish va uning o'ziga xos bo'lgan asosiy xususiyatlari mamlakatning taraqqiyot garovi ekanligi yoritib berilgan.

Аннотация

В данной статье биоэтика анализируется как материальная и духовная парадигма общества, и анализируется, что современная биоэтика и биотехнология являются мультидисциплинарным научно-практическим направлением в социальном развитии общества сегодня. В то же время важность биоэтического персонала в производственном процессе раскрывается в системе "Общество-Социальное, группа-Человек". Важность биоэтики и биотехнологии в научно-техническом и производственном процессе возникла на основе достижений в области биологии, в частности (микробиология, генетика, молекулярная биология, биохимия и т.д.) и инженерных наук. Развитие биоэтики и биотехнологии, в свою очередь, привело к ускорению научных и практических исследований, проводимых в нескольких дисциплинах, связанных с ит. В частности, подтверждается прогресс, достигнутый в вопросах синтеза различных физиологически активных веществ на основе микроорганизмов, создания необходимых и экономически эффективных, конкурентоспособных микробных продуцентов, выделения из них необходимых продуктов, использования с этой целью клеток и тканей растений и животных. Поскольку биотехнология является междисциплинарной, раскрыть все ее направления в одной статье или конкретной научно-исследовательской работе - довольно проблематичная задача. При разработке биоэтических и биотехнологических процессов приводятся размышления об истории, вчера, сегодня и завтра этого направления. В статье предпринята попытка прояснить научные, практические и методологические основы современных биоэтических и биотехнологических процессов, в частности, было объяснено, что развитие производственных процессов биотехнологических процессов в глобальном информационном пространстве и его основные особенности являются гарантией развития страны.

Abstract

In this article, bioethics is analyzed as a material and spiritual paradigm of society, and it is analyzed that modern bioethics and biotechnology are a multidisciplinary scientific-practical direction in the social development of society today. At the same time, the importance of bioethical personnel in the production process is revealed in the "Society-Social, Group-Human" system. The importance of bioethics and biotechnology in the science-technology and production process appeared on the basis of achievements in biology, in particular (microbiology, genetics, molecular biology, biochemistry, etc.) and engineering sciences. The development of bioethics and biotechnology, in turn, has led to the acceleration of scientific and practical research conducted in several disciplines related to it. In particular, the progress achieved in the issues of synthesizing various physiologically active substances based on microorganisms,

creating necessary and economically effective, competitive microbial producers, isolating the necessary products from them, using plant and animal cells and tissues for this purpose confirms. Since biotechnology is multidisciplinary, it is a rather problematic task to reveal all its directions in one article or a specific scientific research work. In the development of bioethical and biotechnological processes, thoughts are given about the history, yesterday, today and tomorrow of this direction. The article tried to clarify the scientific, practical and methodological foundations of modern bioethical and biotechnological processes, in particular, it was explained that the development of production processes of biotechnological processes in the global information space and its main features are the guarantee of the country's development.

Kalit so‘zlar: *bioetika, biotexnologik jarayonlar, global axborotlashgan makon, moddiy ishlab chiqarish, ma’naviy ishlab chiqarish, taraqqiyot, rivojlanish, modernizasiya, diversifikasiya, integratsiya.*

Ключевые слова: *биоэтика, биотехнологические процессы, глобальное информационное пространство, материальное производство, духовное производство, прогресс, развитие, модернизация, диверсификация, интеграция.*

Key words: *bioethics, biotechnological processes, global information space, material production, spiritual production, progress, development, modernization, diversification, integration.*

KIRISH

Jahon falsafasi bugungi globallashuv jarayonidagi barcha sohalar kabi shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Ma’lumki, har bir millat fan-texnologiya va ishlab chiqarish sohasi o‘zining taraqqiyot bosqichiga ega. Shuningdek, har bir mamlakat falsafasi taraqqiyoti bosqichlarini o‘rganar ekanmiz, unda boshqa qardosh yoki nisbatan uzoq mamlakatlarning ijtimoiy taraqqiyoti ta’siri va o‘xshash ko‘rinishlarini har bir bosqichlarda muayyan darajada kuzatishimiz mumkin. Shunday ekan, bugungi kunda bioetikaning zamonaviy mavqei asosan ilmiy yutuqlarda taqqoslanadi. Ayni vaqtda bioetikaning jamiyatdagi boshqaruvchilik roli tashkilotlar, xujjatlar asosining muayyan tizimi, malakali kadrlar tayyorlashning qandaydir turlari mavjud bo‘lishini nazarda tutadi. Mazkur jarayonning funksional jihati bioetika me’yorlari va tamoyillarini yo‘lga soluvchi ta’siri majburiy tusga ega bo‘lgan ijtimoiy xayot nuqtai-nazaridan o‘ziga xos maydonni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Insonning ruhiyati, axloqi va ma’naviyatidagi kemtiklarni to‘ldirish uchun yangi O‘zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonini falsafiy jihatdan tahlil qilib, ajdodlarimizning hayoti, fikrlari, hikmatli so‘zlari, yozgan asarlariga murojaat qilish va masalaning yechimini umumbashariy asosda ko‘rib chiqish asosida “moddiylik va ma’naviylik uyg‘unligi (plyuralistik yondashuv, mustaqil fikrlash, irodani chiniqtirish, tafakkurni yuksaltirish, dunyo xalqlarining ilg‘or texnologiyalari va madaniyatini tanqidiy o‘zlashtirish)” tamoyilini ta’lim tizimi modernizatsiyasiga yo‘naltirish orqali sog‘lom raqobatbardosh ijtimoiy muhitni yaratish konsepsiyasi taklif etildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT USULLARI

XX asrning o‘rtalarida falsafiy tafakkur taraqqiyotida keskin inqilob yuz berdi, u fikrlash, jamoat ongi va ommaning psixologiyasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Xozirgi falsafaiy tafakkur rivojida bioetika tushunchasini insoniyat xususan, yoshlarga singdirishning muammolari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lmoqda. Bu holat fan, texnika va texnologik taraqqiyotning ko‘rsatayotgan ta’siri bilan belgilanadi. Shuningdek, bioetika muammolarini o‘rganishga bo‘lgan intilish va tadqiqotlarning ham doirasi tobora kengayib bormoqda. Chunki, insoniyat o‘z tarixining barcha davrlarida mazkur masalaning mazmun-mohiyatini chuqur anglashga intilgan. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, bioetika juda qadimiy tarixga ega. E’tibor berib qaraydigan bo‘lsak, ko‘plab diniy qarashlarda ham bioetikaga oid g‘oyalar, yondashuvlarni ko‘rishimiz mumkin. Bioetik qarashlar shakllanishining tibbiyot etikasi bilan uzviy aloqadorlikda yuz berganligini ko‘rishimiz mumkin.

Falsafiy tafakkur taraqqiyotida insonning moddiyligiga nisbatan uning ruhiyati sir-asrorini o‘rganish dolzarb va ahamiyatli muammolardan hisoblangan. Xususan, Abu Nasr Forobiy “Odamlar o‘zlarining xos xususiyatlari va tabiiy ehtiyojlariga ko‘ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe’llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyat belgilaydi” [Al-Farabi. 1989: s. 229.]. G‘arb falsafasida ham bu masalaga yondashuvlar mavjud. Unda inson ruhiyatining yangicha talqini XX asr o‘rtalaridan boshlanib, F.Nisshe [Nisshe F. 1990.] tomonidan asos solingan. A.Bergson [Bergson A. 1908.], O.Shpengler [Shpengler O. 1992.], V.Diltey [Diltey V. 1978.]lar uni rivojlantirib, inson hayotining mohiyatini insonning o‘zidan anglab olishga qaratganlar. biotexnologik taraqqiyotning hozirgi bosqichida insoniyat yechimini topmagan yangi xavf-xatar va tahdidlardan yuksak axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lish va o‘z insoniy mohiyatini anglash orqali xalos bo‘lishi muqarrar.

ILMIY AXBOROT

Hozirgi zamon falsafa ilmining munozarali masalalaridan biri – bu ijtimoiy taraqqiyot jarayoni asoslaridan biri bo‘lgan bioetika va biotexnologik rivojlanishning fan, texnika va texnologiyalar hamda moddiy va ma’naviy ishlab ishlab chiqarish jarayonidagi o‘zaro nisbat muommosini hal etish hisoblanadi. Bu masalaga jiddiy yondashish o‘tgan XX asrning 80-yillarida boshlangan bo‘lib, unda asosan Bioetika ilmiy tadqiqotning yangi yo‘nalishi, balki hayotni falsafiy bilish va uni er yuzida saqlashning boshqa sohasi hisoblanadi [Хрусталев Ю. М. Биоэтика. Философия сохранения жизни и сбережения здоронья: учебник / Ю.М.Хрусталев. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2012. – 400 с. (14 б.)]. Shu bilan birga moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishni tahlil qilish borasida o‘ziga xos bo‘lgan turli xil qarashlar va yondashuvlar shakllanib, ular o‘rtasida ko‘plab bahs-munozaralar bo‘lib o‘tgan edi [Толстых В.И. Социально-философские проблемы теории общественного производства. – Вопросы философии, 1982, № 4, Бородин Е.Т. Проблема возникновения производства непосредственной жизни общества. – Философские науки,1980, № 6. Ильенков Э.В. Проблема идеального. – Философские науки, 1979, № 7.].

Ushbu masalani, aftidan, moddiy ishlab chiqarish va ma’naviy ishlab chiqarish dialektikasining amalga oshish shakllaridan birini tahlil qilish natijalarini uning boshqa shakllariga bevosita ko‘chirish orqali hal etib bo‘lmaydi. Shunga qaramay, turli tadqiqotchilar tomonidan bildirilgan qator samarali g‘oyalar moddiylik va ma’naviylik munosabatlari tizimining amalda ko‘p qirrali ekanligini aniqlashga imkon beradi [To‘raev Sh. O‘zbekistonda demokratik jamiyat rivojida iqtisodiy va ma’naviy omillar uyg‘unligi. – T.: O‘zbekiston, 2011. (104 b.), Hayitov U. Jamiyat taraqqiyotida ma’naviyatning o‘rni. – T.: «Ma’naviyat», 2015. (32 b.), O.Sultonmurod. Ma’naviy barkamollik sir-sinoati. – T.: «Ma’naviyat», 2015. (32 b.)]. Ammo, hatto shu jihatdan qaraganda ham, ishlar endigina boshlangan. Insoniyat faoliyatining turli sohalarida amalga oshayotgan moddiylik va ma’naviylik o‘zaro ta’siri (munosabati)ning ko‘plab tomonlari hali o‘rganilmagan. Ularga, jumladan, ijtimoiy taraqqiyotda moddiylik va ma’naviylik omillari dialektikasi ham kiradi.

Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning obyektivlik, tarixiylik, mantiqiylik, vorisiylik, sistemalilik, germenevtika, interpretatsiya, qiyosiy tahlil usullari istifoda etildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yangi O‘zbekiston ijtimoiy taraqqiyotining doimiy ravishda jadal sur’atlar bilan kechishini ta’minlashni mamlakatda yuz berayotgan moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonini falsafiy jihatdan tadqiq etmasdan, uning natijalarini hisobga olmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi. Ushbu natijadorlikni nazariy va amaliy jihatdan amalga oshirilishi esa o‘z navbatida jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi umumiy, xususiy, alohida tarzda kechayotgan moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonlari dialektik qonuniyatlarni to‘liq anglab yetish orqali ularni uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “...Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir, ... – Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan yekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat” [Xalq so‘zi 2021 yil 20 yanvar №13 (7793) soni // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 yanvar kuni ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidan]. Shunday ekan har qanday jamiyatning hayotiy asoslarini moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonidagi bioetika, bioaxloq va biotexnologik taraqqiyot tashkil etishini ko‘rishimiz mumkin. Bioaxloq tabiat bilan bog‘liq va unga nisbatan qaratilgan xatti-harakatlar majmui.

Bioetika – falsafa, huquq, meditsina, biologiya, jamiyatshunoslik, siyosatshunoslik, ahloqshunoslik, madaniyatshunoslik, dinshunoslik kabi fanlar chegarasida paydo bo‘lgan va ilmning fanlararo sohasi hisoblanib, insonning hayot va o‘limga bo‘lgan munosabatining axloqiy jihatlarini o‘rganadi va zamonaviy tibbiyotning eng keng doiradagi ijtimoiy-iqtisodiy, odob-axloq va huquqiy muammolarini o‘z ichiga oladi. Bu ma’noda bioetika insonning hayot sifati, jismoniy va ruhiy daxlsizligi, insoniy qadr-qimmati, uning va umuman aholi sog‘lig‘i himoyasining odob va axloqiy asoslari konsepsiyasini o‘zida ifodalaydi. U inson sog‘lig‘i va hayot sifatiga bevosita va bilvosita zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan biologiya, tibbiyot, farmatsiya va sog‘liqni saqlash

sohasida insonlar hamda ularning uyushmalari manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyatlarni o‘rganadi. Bioetikaning bosh g‘oyasiga ko‘ra, inson tabiatning bir qismi bo‘lib, unga sog‘lom ovqat, musaffo havo, toza suv, tabiatning yovvoyi go‘shalari zarur. U nafaqat ekologik boylik hisoblangan, balki inson omon qolishining bosh sharti bo‘lgan hayvonlar, o‘rmonlar, daryo va yerlarsiz hayot kechira olmaydi. Bioetikaning maqsadi – fan va texnika yutuqlaridan faqat inson va tabiat ravnaqi uchun foydalanishni ta’minlaydigan odob-axloq normalari, talablari, prinsiplari va boshqa mexanizmlarni ishlab chiqishdir. Fikrimcha, kelajak uchun tabiatni asrab qolishimiz uchun ham o‘quv dasturiga “Bioaxloq” fanini kiritish lozim.

Shu o‘rinda Bioetika tushunchasiga ta’rif bersak. Bioetika (qad. yunon. Βιός – “hayot” + ήθική – “hulq, qilmishlar”) – meditsina va biologiyada inson faoliyatining ahloqiy jihatlari haqidagi ta’limotdir. Bioethics atamasi ilk bor 1927-yilda nemis pastori Frits Yar tomonidan ishlatilgan. U Immanuil Kantning qat’iy imperativiga qarshi bioetik imperativni ta’riflab bergan. Unga ko‘ra, nafaqat insonga, balki, hayvonlar va o‘simliklarga hurmat bilan munosabat qilish talab etiladi.

Tor ma’noda bioetika atamasi shifokor va bemor munosabatida barcha doiradagi etik muammolarni bildiradi. Keng ma’noda bioetika atamasi nafaqat insonga, balki, insonni o‘rab turgan ekotizimlarga kiradigan barcha tirik organizmlarga taaluqli bo‘lgan ijtimoiy, ekologik, tibbiy va ijtimoiy-huquqiy muammolarni o‘rganishga qaratilgan.

Oksford lug‘atida bioetikaga quyidagicha ta’rif berilgan: bioetika – mavzusi meditsina va biologiya rivojlanishi davomida paydo bo‘ladigan etik muammolardan iborat bo‘lgan fandir. [Yuldashev N.M., Saydalixodjaeva O.Z., Saidov A.B. Bioetika: Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari tibbiy-biologik fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: «Meditsina» nashriyoti, 2018. – 151 b 15]

Shu bois bioetika va biotexnologik jarayonlarning moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishni uyg‘unlashtirishda tutgan o‘rni quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Bioetika va biotexnologik jarayonlar o‘ziga xos infosfera bo‘lib, u axborot va kommunikasiyalar sohasida yuz berayotgan texnikaviy-texnologik ishlanmalar orqali jamiyatda sodir bo‘ladigan global o‘zgarishlar natijasida shakllanadi va ijtimoiy fenomenlarni rivojlantiradi.

2. Bioetika va biotexnologik jarayonlar moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish taraqqiyoti orqali davlat va jamiyat, shaxs va tadbirkorlik kabi tizimlar o‘rtasidagi aloqalar muvozanatini saqlash va ularning manfaatlarini bir konsensusga keltirish, ya’ni uyg‘unlashtirishga olib keladi

3. Bioetika va biotexnologik jarayonlar moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishni uyg‘unlashtirish jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash omili sifatida:

birinchidan, normativ - huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish;

ikkinchidan, axborot va kommunikasiya tarmoqlarini rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish sohalarini tasniflash, axborot qurilmalarni standartlashtirish;

uchinchidan, axborotlashgan jamiyatning har xil ijtimoiy va madaniy jihatlarini o‘rganish;

to‘rtinchidan, aholi o‘rtasida axborotlashgan makonning ahamiyatini targ‘ib va tashviq qilishda muhim vazifani bajaradi.

Demak bioetika va biotexnologik jarayonlarning global axborotlashgan makonda moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishni uyg‘unlashtirish orqali tabiat, jamiyat, inson tafakkurida dunyoning har qanday burchagida sodir bo‘layotgan ish, voqea-hodisalar to‘g‘risida barcha ma’lumotlarni mujassamlashtirish ulardan tez fursatlarda foydalanishni ta’minlash, ixcham va sifatli texnika va texnologiyalardan tashkil topgan infrastrukturalar orqali tezkor tushuncha beruvchi xabar va ma’lumotlarni olish mumkin bo‘ladi. Shu bois ijtimoiy falsafiy jihatdan moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishni uyg‘unlashtirish obektiga ko‘ra:

birinchidan, tabiat (koinot, yer-suv, tuproq, o‘simlik, hayvonot va boshqalar);

ikkinchidan, jamiyat (odamlar, jamoat birlashmalari, davlatlar, ularning tuzilishlari, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatlari);

uchinchidan, inson faoliyati (jismoiniy va aqliy salohiyati, salomatligi, ongi va tafakkuri, mentaliteti, moyilligi va boshqalar) haqida batafsil ma’lumotlarni yetkazib beruvchi guruhlarga ajratish mumkin. Ammo bu bilan ularni tasniflash muammosi tugamaydi. Darvoqe, mavjud olamda yuz berayotgan hodisa, voqea, jarayonlar qanchalik tez va izchil kechsa, ular haqidagi informastiyalar oqimi ham shunchalik ko‘p va xilma-xil bo‘ladi.

Bundan tashqari tadqiqotimiz ko‘rsatishicha bugungi kundagi axborotlarni sub’ektiga ko‘ra uchta katta guruhga ajratish mumkin:

birinchisi, axborotlarni o‘zida miqdoriy va sifatiy jihatdan aks ettirgan holda saqlovchi, qayta ishlovchi va uzatuvchi texnologiyalarga asoslangan vositalar – oddiy aloqa tarmoqlaridan tortib bugungi kundagi murakkab texnologiya asosiga qurilgan ixcham va qulay har xil turdagi

katta va kichik qurilmalargacha bo‘lgan vositalar;

ikkinchisi, ularning ijodkori bo‘lgan intelektual aql sohiblari;

uchinchisi ulardan foydalanuvchi shaxs, jamoa va boshqa turli xildagi birlashmalardir.

Shu bilan bir qatorda har qanday sharoitda ham mamlakatimizning barqaror ijtimoiy rivojlanishi moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish bilan bog‘liq ekanligi ilmiy falsafiy tahlil qilingan.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchisi, inson o‘z umri va uni o‘rab turgan voqelikni tahlil qilish, adolatsizlikni his qilish, havf-xatarga chap berish, majburiyatni o‘z zimmasiga olish kabi noyob qobiliyatga ega ekanligini, hamkorlikga va voqeaga ahloqiy baho berishga intilishini, shu asosida etik prinsiplar shakllanishini anglagan holda o‘z manfaat va ehtiyojlarini jamiyat manfaat va ehtiyojlariga mos tarzda, dialektika qonunlari asosida ish yuritishni taqozo etadi.

Ikkinchisi, tez sur’atlar bilan davom etayotgan ilmiy taraqqiyot va tegishli texnologik ishlab chiqish usullari keltirib chiqarayotgan etnik muammolarni, inson shaxsi qadr-qimmatini va umuman barchani hurmat qilishni, hamda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ta’minlagan holda ko‘rib chiqish kerakligini tan olgan holda kelgusi taqdirini hal qilish uchun oqilona harakatlarni sodir etishni, ya’ni insoniyatni halokat yoqasiga emas, balki porloq kelajak sari boshlab borishni o‘zida ifoda etadi. Bunda asosiy masala insoniyatni har xil ijtimoiy ziddiyatlar (jahon, lokal, mintaqaviy, mahalliy urush va janjallar) asosida kelib chiqadigan balo-qazolardan saqlab qolish hisoblanadi.

Uchinchisi, tez sur’atlar bilan davom etayotgan ilmiy-texnik taraqqiyot hayotni anglashimizga va hayotning o‘ziga yanada katta ta’sir ko‘rsatayotganini va bunday o‘zgarishlarning etnik oqibatlari munosabati bilan global chora-tadbirlarni qabul qilishni qat’iy sur’atda talab qilayotganini ta’kidlagan holda ekologik muammolarning oqilona yechimini topish hisoblanadi.

To‘rtinchisi, insoniyat va atrof-muhit ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida oshib borayotgan muammolar va ziddiyatlar bilan to‘qnash kelayotgani sababli insoniyat tomonidan chora tadbirlarni qabul qilish uchun asos bo‘ladigan, xalqaro hamjamiyat tomonidan umumiy prinsiplarni qabul qilish zarurligi va ayni payti ekanligiga qat’iy ishongan holda global muammolar bir tomondan moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish jarayonlarini uyg‘unlashtirishni, ikkinchi tomondan esa bularsiz mazkur muammolarni hal etib bo‘lmasligini, bunda asosiy masala moddiylik va ma’naviylik bir biridan ajralmasligini, ular bamisoli qushning ikki qanoti ekanligini, ya’ni birisiz ikkinchisining, ikkinchisiz birinchisining yuksak cho‘qqilar sari parvoz qilolmasligini anglatadi [Mirziyoyev Sh.M. Xalq so‘zi 2021 yil 20 yanvar №13 (7793) soni].

Shu bois ushbu muommoni ijtimoiy falsafiy tahlil va tadqiq etish insonning o‘ziga xosligi biologik, fiziologik, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy jihatlarga ega ekanligini ham hisobga olib, fan va texnologiya sohasidagi ahloqsiz xatti-xarakat tub va maxalliy aholiga o‘ziga xos ravishda ta’sir ko‘rsatishi lozim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M Xalq so‘zi 2021 yil 20 yanvar №13 (7793) soni. (Mirziyoyev Sh.M folk word number of January 20, 2021 No. 13 (7793)).

2. Хрусталев Ю. М. Биоэтика. Философия сохранения жизни и сбережения здоронья: учебник / Ю.М.Хрусталев. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2012. – 400 с. (14 б.). (Khrustalev Yu. M. Bioethics. Philosophy of life preservation and health saving: textbook / Y.M.Khrustalev. – M.: GEOTAR-Media, 2012. – 400 p.).

3. Толстых В.И. Социально-философские проблемы теории общественного производства. – Вопросы философии, 1982, № 4. (Tolstykh V.I. Socio-philosophical problems of the theory of social production. – Questions of Philosophy, 1982, No. 4.).

4. Бородин Е.Т. Проблема возникновения производства непосредственной жизни общества. – Философские науки,1980, № 6. (Borodin E.T. The problem of the emergence of production in the immediate life of society. – Philosophical Sciences, 1980, No. 6.).

5. Ильенков Э.В. Проблема идеального. – Философские науки, 1979, № 7. (Ilyenkov E.V. The problem of the ideal. – Philosophical Sciences, 1979, No. 7.).

6. To‘raev Sh. O‘zbekistonda demokratik jamiyat rivojida iqtisodiy va ma’naviy omillar uyg‘unligi. – T.: O‘zbekiston, 2011. (104 b.). (Turayev Sh. The combination of economic and spiritual factors in the development of a democratic society in Uzbekistan. - T.: Uzbekistan, 2011. (104 b.)).

7. Hayitov U. Jamiyat taraqqiyotida ma’naviyatning o‘rni. – T.: “Ma’naviyat”, 2015. (32 b.). (Heyitov O. The role of spirituality in the development of society. - T.: “Spirituality”, 2015. (32 b.)).

8. Sultonmurod O. Ma’naviy barkamollik sir-sinoati. – T.: “Ma’naviyat”, 2015. (32 b.). (Sultanmurad A. The mystery of spiritual perfection-sinoati. - T.: “Spirituality”, 2015. (32 b.)).

9. Yuldashev N.M., Saydalixodjaeva O.Z., Saidov A.B. Bioetika: Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari tibbiy-biologik fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: “Meditsina” nashriyoti, 2018. – 151 b. (Yuldashev N.M., Seydalikhadjaeva A.Z., Saidov A.B. Bioethics: a textbook for students of medical and biological faculties of medical universities. - Tashkent: publishing house “Meditsina”, 2018. - 151 b.).